



## TA`LIM JARAYONIDA ASSESMENT TEXNIKASIDAN FOYDALANISH

I.Q.Hakimova

*Toshkent davlat transport universiteti, assistent*

*Ta`lim sifatini oshirish –*

*Yangi O`zbekiston taraqqiyotining  
yakkayu yagona to`g`ri yo`lidir*

*O`z R Prezidenti Sh. Mirziyoyevning*

*Oliy Majlis va O`zbekiston  
xalqiga Murojaatnomasi (20.12.2022y.)*

20 dekabr 2022 yil O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023 yil **yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”**, deb nom berildi. Bu albatta biz ustozlarga ta`lim va tarbiya jarayoniga katta ma`suliyat bilan yondashishni talab etadi. O`qitish ikki barobar o`qish demakdir.

Talabani ta`lim jarayonining sust tinglovchisi bo`lishdan faol ishtirokchisiga aylantirish, talabandan mustaqil faoliyat yurutish, nazariy bilimlarni o`zlashtirish asosida o`zining fikrini ilgari surish, dalillar keltirish, o`z fikrini himoya qilish loyaqatini tarbiyalay olishi talab etiladi. Chunki uzoq yillar davomida ta`lim jarayonida ustozlar tomonidan fanni ortiqcha mushohada qilmasdan, tayyor holda qabul qilinadigan darajaga keltirib talabaga taqdim etilishi talabalarning faoliyatini orttirmasdan, ularda ijodiy fikrlash malakasi shakllanishga to`liq imkon bermayapti. Ta`kidlash joizki, tayyor holda olingen bilimlarni amaliyotda qo`llash qiyin. Bu ayniqsa fanlar bo`yicha topshiriqlarni bajarishda namoyon bo`ladi. Shuning uchun bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishda talabalarning bevosita faoliyat ko`rsatishlariga hamda ustoz tomonidan boshqaruvga asoslangan yangi usullarni qo`llashga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu sabab ham ta`lim jarayonida talabani nafaqat o`qitadigan, balki uni mustaqil o`qishga, bilim olishga o`rgatadigan darslarda interfaol usullarni qo`llashga talab kuchaydi.

Interfaol usullar ta`lim-tarbiya jarayoniga o`ziga xos innovatsion yondashuvdir. U o`qitishning ma`ruza, suhbat kabi usullarining o`zi bilan cheklanib qolmay, balki, talabaning bilish faoliyatini boshqaruvchi, tashkilotchi, maslahatchi, yakuniy natijaga erishishga yo`llovchi bo`lmish ustoz rahbarligida uning ko`proq mustaqil ishlashini tashkil etish imkoniyatining mavjudligidir.

Interfaol (“Inter” – o`zaro, “act” – harakat qilmoq) – o`zaro harakat qilish (yoki kim bilandir suhbatda, muloqotda bo`lish)ni anglatadi. Interfaol ta`limning mohiyati – talabalarning bir-birlaridan o`rganishlariga yo`naltirilganligi.

Innovatsiya (inglizcha Innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o`zgartirish demakdir. Innovatsion pedagogic texnologiyalar ta`lim tizimi, pedagogik jarayon hamda ustoz va talaba faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanadi.

Yaqin o`tmishda talabalarning ta`lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o`zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko`nikmalarni namoyish etuvchi sub`yekt sifatidagi roli bilan kifoyalangan bo`lsa, yangi ta`lim texnologiyasi talablariga ko`ra talaba ta`lim jarayonining sub`yekti, asosiy ijrochisi sifatida ko`rinadi. Endilikda ta`lim beruvchining yo`llanmasi, ko`rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o`quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o`zlashtiradi, ustozning nazorati ostida amaliy ko`nikma va malakalarni hosil qiladi. Aslida ta`lim oluvchilarga ta`sir ko`rsatishi bilan farq qiladigan yuzlab usullar mavjud. Aytaylik, talabalardan birorta masala haqida yozma ravishda javob olishdan oldin ularga juft-juft bo`lib masalani muhokama qilishni taklif qilish, beixtiyor interfaol usul qollangan bo`ladi.

Yurishdan oldin yo`l tanla, degan xalq maqoliga binoan dars berishdan oldin o`qitiladigan fanning, mavzuning xarakteriga mos usul tanlash kerak. Usul tanlashdan oldin fan bo`yicha nima o`rgatilishi (o`qitishdan maqsad nimaligini) aniq tasavvur qilib olish zarur. Agar dars aniq tizim va dalillarga asoslangan maxsus fandan bo`lsa interfaol usullardan kamroq foydalanish tavsiya etiladi. Darsning maqsadi talabalarning malaka va ko`nikmalarini shakllantirish uchun mo`ljallangan bo`lsa, u holda ko`proq interfaol usullardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Yangi interfaol usullarni ta`limga qo`llash hozirgi kunning dolzarb talablaridan bo`lib uning o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Biroq ta`lim amaliyotidagi barcha muammolarni interfaol dars usullari yordamida hal qilishga urinish, ularni muvaffaqiyat keltiruvchi “omad” deb qarash joiz bo`lmaydi. Umuman olganda, barcha darslarda doimo muvaffaqiyat keltiradigan bir, xil, umumiy o`qitish usuli mavjud emas. Shunday ekan, an`anaviy o`qitish usullaridan butunlay voz kechish emas, balki ularning samarali jihatlarini saqlab qolgan holda, uyg`unlashgan interfaol dars usullarini ta`limga joriy etish ma`qul. Ba`zan bir soatlik dars davomida dars usullarini bir necha bor o`zgartirishga to`g`ri keladi. Bu darsning yanada qiziqarli o`tishiga, talabalarni bir holattan ikkinchi holatga o`tkazish ularning yanada faolroq bo`lishiga olib keladi. Demak, birgalikda o`qitish usullari an`anaviy usullarga nisbatan yaxshiroq yoki uning teskarisi deb ta`kidlash noto`g`ridir. Mahoratli ustoz zaruratga qarab, bir dars jarayonidagi har xil bosqichlarda an`anaviy, noan`anaviy hamda interfaol o`qitish usullaridan foydalanishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, an`anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni talabalar ishtirokida turli-tuman faollashtiradigan usullar bilan boyitish o`zlashtirish darajasi ko`tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishi, ustoz tomonidan talabalar qiziqishini orttirib, ularning ta`lim jarayonidagi faolligi muttasil rag`batlantirib turilishi, o`quv materialini kichik-kichik bo`laklarga bo`lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o`yinlar usullarini qo`llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, noan`anaviy baholash usullaridan foydalanish, ta`lim vositalarini joyida va vaqtida qo`llash talab etiladi.

Taniqli pedagog olim M.N.Mahmutov fikriga ko`ra, o`quv jarayonining an`anaviy sxemasi talabalarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning

bilimga bo`lgan qiziqishlarini to`liq qondira olmaydi. An`anaviy ta`lim texnologiyalariga asoslangan ma`ruza, seminar, sinov darslarining ta`lim jarayonida tutgan o`rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish muvaffaqiyatli kechmoqda.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e`tibor qaratish ko`zda tutiladi: pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, hamkorlik pedagogikasiga amal qilish; ta`lim jarayonini demokratlashtirish, talabalarga tanlash huquqini berish; talabalarning bilish jarayonini faollashtirish, o`zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish; talabalarning ijodiy va mustaqil ishlarini rivojlantirish; ma`ruza, seminar va amaliy mashg`ulotlarda zamonaviy ta`lim taxnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Agar ustoz yangi mavzuni ta`sirli bayon qilib, ko`rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim talabalar bilan ish olib borsa, o`quv jarayoni samarali yakun topdi yoki faol bo`ldi, deb hisoblash mumkin.

Ustoz atrofda bo`layotgan voqealarni to`g`ri tahlil qila bilishi, barcha sohalardan xabardor, nihoyatda ma`rifatli, zukko, ilg`or fikrli, zamonasining yetuk ma`rifatchisi bo`lishi kerak. Ustoz ta`lim jarayonini rivojlantirishni, uning sifatini oshira olishni, t`alimda eng zamonaviy uslublarni sohaga joriy qilishni eplay olishi zarur. Talabalarning ta`lim olishga bo`lgan ishtiyoqini kuchaytirishi, ularni ilmga, bilgan narsalariga amal qilishga targ`ib qilishi darkor. Ustoz shogirdlari, hamkasb do`stlari bilan aloqani mustahkamlashi zarur. O`z kasbining fidokori bo`lishi, hayotini dars berish, ziyo tarqatishga bag`ishlashi va shu kabi bir qator ma`suliyatli vazifalarni to`la anglab yetishi juda muhim. Ustoz xulqining go`zalligi bilan sifatlangan, ziynatlangan, madaniyati yuksak, chuqur ma`lumotli, dars o`tadigan talabalarning mayillari, hojatlari, ularning xos xislatlarini yaxshi fahmlaydigan shaxs bo`lishi lozim. O`z darsiga rag`bat qilgan holida eng yangi uslub va vositalar bilan ta`lim bera olishiga e`tibor qaratishi zarur bo`ladi.

Ish va unda muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omillari faqat ishning tugallangan bo`lishi emas, ayni paytda, mumkin qadar kam energiya (quvvat) sarflab, iloji boricha ko`p samaraga erishishdir ( Mahmud As`ad Jo`shon).

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish ustoz va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo`ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya`ni texnologiyaga bog`liq. Ta`lim jarayonida maqsad bo`yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo`llaniladigan har qanday ta`lim texnologiyasi ustoz va talaba o`rtasida: o`zaro hamkorlik faoliyatini tashkl eta olsa; har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa; o`quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar; o`zlar xulosa qila olsalar, o`zlariga, guruhga baho bera olsalar; ustoz ularning bunday faoliyatlar uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shular o`qish jarayonining asosi, negizi hisoblanadi.

Talabalarga o`z bilim, ko`nikma, malakalarini mohirlik bilan sinab, o`z-o`zlarini baholashlari va sinovdan o`tishlarini ustozga assesment texnikasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Assesment (inglizcha – assessment – baho) o`z-o`zini taqdimot qilish, ma`lum bir sinovdan o`tishni anglatadi.

Texnikaning tavsifi: o`tilgan o`quv predmeti yoki bo`lim bo`yicha (modul, semestr, yoki o`quv yili tugaganda) barcha mavzularni talabalar tomonidan yodga olish yoki biron-bir mavzu bo`yicha trener-ustoz tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o`z munosabatlarini bildirish, shu orqali egallagan bilim, ko`nikma, malakalarini o`zlari tekshirib, baholashlariga imkoniyat yaratish va ustoz tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarning ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan bilimlari, ko`nikmalarini baholay olishga yo`naltirilgan.


Texnikaning maqsadi: talabalarning mashg`ulotda o`tilgan mavzuni egallaganligi va mavzu bo`yicha tayanch tushunchalarni o`zlashtirib olganligi darajasini aniqlash. Ularni mustaqil ravishda o`zlarining bilim darajalarini, baholay olishga, shuningdek, o`z bilimlarini bir tizimga solishga o`rgatish.

Texnikaning qo`llanishi: o`quv mashg`ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars ichida o`quv predmetining biron-bir moduli tugallanganida) o`tilgan mavzuning o`zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o`tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo`ljallangan. Ushbu texnikani mashg`ulot jarayonida yoki mashg`ulotning bir qismida yakka tartibda tashkil etish yoki vazifa berishda ham qo`llash mumkin.

Mashg`ulotda qo`llaniladigan vositalar: tarqatma materiallar (imkoni bo`lsa talabalar o`z daftarlari jadvalni chizib olishlari, berilgan vazifa, topshiriqlarni ustoz tomonidan eshitib, javoblarini jadvalning kataklariga to`ldirishlari shart), jadval uchun topshiriqlar, qalam (yoki ruchka), taqdimot – slaydlar va boshqalar.

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:

- talabalar ish tartibi, belgilangan maqsad, unga qo`yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mavzu bo`yicha taalluqli tarqatma materiallar beriladi;
- tarqatma materiallar quyidagi qismlardan tarkib topgan:



- talabalar yakka tartibda o`tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo`yicha tarqatma materialdagi kataklarda berilgan vazifa, topshiriqlar bilan tanishadilar(vazifa va topshiriqlar ekranda slayd orqali ko`rsatilishi, talabalar esa tarqatma materialga yoki daftarlariga faqat javoblarni yozishlari mumkin bo`lmasa yoki tarqatma materialning bir tomonida topshiriqlar berilishi, orqa tomoniga esa javoblar yozilishi mumkin, ustoz sharoit va vaziyatdan kelib chiqib, o`zi va talabalar uchun qulay holatda ish tutadi);

- talabalar tarqatma materialda mavzusi bo`yicha berilgan vazifa, topshiriqlarni o`zlarining bilimlari asosida yakka tartibda bajaradilar;

- ustoz tarqatma materialda berilgan vazifalarning to`g`ri javobini ekran orqali (imkon bo`lmasa, og`zaki) beradi hamda barcha talabalarni xar bir qismda berilgan javoblarning baho mezoni bilan tanishtiradi. Baho mezoni birinchi va ikkinchi topshiriqlarga olingan aniq va nazariy bilimlarga aniq va to`g`ri javob talab etadi, shuning uchun bu topshiriqlarga to`g`ri javob uchun 5 ball, noto`g`ri javob uchun 0 ball qo`yiladi. Keying topshiriqlarni olingan nazariy bilimlarni amaliyatda qo`llay olish darajasiga ko`ra 1 balldan 5 ballgacha baholash mumkin. Shunga ko`ra baho mezoni: “3” – 11-14 ball; “4” – 15-16 ball; “5” – 17-20 ball – har bir topshiriq “5” balli;

- har bir talaba to`g`ri javob bilan o`zi belgilagan javoblarning farqlarini aniqlaydi, o`zini tekshiradi, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydi;

- ustoz talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni yig`ib oladi va ularning to`plagan ballarini e`lon qiladi, o`tkazilgan ishga yakun yasaydi.

### **Ustozning ish tajribasidan:**

**Fan:** Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish.

**Mavzu:** Aniq integrallarni taqribiy hisoblash to`g`ri to`rtburchaklar usullari.

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Aniq integrallarni taqribiy hisoblashda qanday usullardan foydalaniladi?</p> <p>a) Simpleks, to`g`ri to`rtburchaklar usullari; b) Simpson, potensiallar, tog`ri tortburchaklar usullari; c) Trapetsiya, Simpson, to`g`ri to`rtburchaklar o`ng va chap usullari</p>	<p style="text-align: center;"><b>MUAMMOLI VAZIYAT</b></p> <p>Aniq integrallarni taqribiy hisoblashda qo`llaniladigan usullarning bir biradan farqi nimada?</p>
<p style="text-align: center;"><b>SIMPTOM (ALOMATI)</b></p> <p>Aniq integrallarni taqribiy hisoblashda qaysi usuldan foydalansilsa javob aniqroq olinadi?</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO`NIKMA</b></p> <p>Aniq integrallarni taqribiy hisoblash usullarida qo`llaniladigan formulalarni yozing.</p>

Xulosa qilib aytganda, faol ta`lim metodlari qo`llanilsa, ta`lim tarbiya jarayoni ishtirokchilarining doimo faol, izlanuvchan, ijodkor bo`lishiga sharoit yaratiladi. Bu esa tahsil oluvchi o`zi tanlagan kasb bo`yicha malakali, raqobatbardosh kadr bo`lib yetishishiga asos bo`ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O`zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022y.

2. В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов. Педагогика. Москва.  
Издательский центр «Академия», 2011.

3. Л.П.Крившенко, М.Е.Вайндроф-Сысоева. «Педагогика». Москва. ООО «Проспект»,2012.
4. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. “Ta’lim-tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. “Nihol”, Toshkent. 2013.
5. Abdulla Avloniy. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat”, Toshkent, 2006.
6. A.A.Korzun “Talabaning odobi”, “Movarounnahr”, Toshkent, 2019.